

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI



Ro'yhatga o'lingan № 27/iyun/2024 2024 yil

Kadastr menejmenti va iqtisodi

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700000	– Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	720000	– Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi:	60722500	– Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino va inshootlar kadastr)

Qarshi – 2024

2	<p>MSc Major Programme Management (MMPM). Course Handbook 2018. 3. BA in Economics and Management. Course Handbook 2019-2020. // https://canvas.sbs.ox.ac.uk/weblearn.ox.ac.uk/portal/site/socsci: econ: undergrad 4. Keller K.L. Strategicheskiy brend – menedjment: sozdaniye, otsenka, upravleniye marochnim kapitalom Uchebnik. M.: Izdatelskiy dom.: Vilyams, 2010. – 704 str. 5. Minnett, Stiv. Marketing V2V i promishlenniy brending: Per. s angl. – M.: OOO «ID Vilyams», 2018. – 208 s. 6. Gary Armstrong, Philip Kotler. Principles of Marketing. 2016, Paperback: 720 pages, Pearson. 7. Ergashxodjayeva SH.Dj., Ikramov M.A., Adilova Z.Dj., Nematov I. Kotler, F. Osnovi marketinga. 5-ye izd. / F. Kotler, A. Gari. - M.: Axborot manbaalari: 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. http://www.ziyounet.uz. axborot ta'lim portali. 4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi. 5. www.ziyounet.uz - Ta'lim portali.</p>
7	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: J.Q.Berdiyev - QarMII, "Bisnes va innovasion menedjment" kafedrası katta o'qituvchisi</p>
8	<p>Taqrizchilar: X.S.Muxitdinov - QarMII, "Bisnes va innovasion menedjment" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori A.B.Qurbonov- Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
KMI14126	2024-2025	8	4	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Tanlov	O'zbek	4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1	60	60	120	
2	Geodeziya, kartografiya va kadastr (bino va inshootlar kadastri)			

I. Fanning mazmuni.

1. **Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda korxonalar, tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatishni tashkil etish, bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarining natijalarini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Fan mazmunini anglab yetish talabalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkilot va korxonalar tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlash, boshqaruv tizimining turli pog'onalarida vakolatlar va vazifalarni taqsimlash, tashkilot va korxonalar boshqarish samaradorligini oshirishda tashkilot va korxonada mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, korxonada menejer faoliyatini oqilona tashkil etish, boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalar samarali foydalanish, korxonada samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kabi kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhimdir.

Fanning vazifalari - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash jarayoniga uslubiy yondoshuv xamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-moxiyatini bilish, boshqarish tamoyillari, tizimlari, usullarini yaratishni, boshqaruv sohasidagi muammoli xolatni baholash, xarakat strategiyalarini tuzish va rivojlanish muammolarini hal qilishning innovatsion usullarini topish, biznes sharoitida boshqaruv va yetakchilik faoliyatining ahamiyatini ochib berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

III.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Korxonalarining tashkiliy huquqiy asoslari

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalar katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'muriy buyruqbozlik xo'jaligidan farqli

o'laroq iqtisodiy faoliyat markazi barcha iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'limish – korxonalar tomoniga siltib o'tadi.

2-mavzu. Sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish

"Strategiya" atamasi qadimgi yunoncha "qo'mondonlik san'ati" degan ma'noga ega bo'lib, harbiy kelib chiqishga ega. Dastlab strategiya urush san'ati deb tushunilgan. Urushlar (va afsuski, hozirgi kungacha) odamlar, xalqlar, mamlakatlar hayotidagi eng muhim voqealar bo'lganligi sababli "strategik" tushunchasi "eng muhim", "belgilash" ma'nosida umuman boshqaruv terminologiyasining tarkibiy qismiga aylandi.

3-mavzu. Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoni
Korxonada xom-ashyomateriallarni iste'mol qilishga yoki keyinchalik qayta ishlab chiqarishga yaroqli tayyor mahsulotga aylantirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish omillarining o'zaro ta'siri jarayoni ishlab chiqarish jarayonini yoki ishlab chiqarishni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari mehnat (inson faoliyati), obyektlar va mehnat vositalari. Ko'plab tarmoqlar tabiiy jarayonlardan foydalanadilar.

4-mavzu. KORXONANING ASOSIY FONDRLARI ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI

Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy fondlarning alohida o'rni bor. Chunki ularsiz birorta ismi bajarish, xizmat ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish jarayonida mehnat buyumlari, mehnat qurollari (mehnat vositalari) va inson mehnati ishtirok etadi. Mehnat buyumlariga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, elektr quvvati, ta'mirlash uchun ehtiyoj qismlar va h.k.lar, mehnat vositalariga esa, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, yuk tashuvchi va uzatuvchi vositalar, kompyuter va laboratoriya anjomlari, bino va inshootlar kiradi.

5-mavzu. KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI
Mexnatni boshqarishning xarakteri. Iqtisodiy o'sishning xar xil bosqichlarida mexnatni boshqarish turlari. F.Teylorning mexnatni boshqarish usullari. Mexnatni texnokratik boshqarish. Sanoatda bandlikning umumiy tamoyillari va mexnat munosabatlarini urnatish. D.Makgregorning "X" va "Y" nazariyasi. Mexnatni innovatsion boshqarish. Mexnatni innovatsion boshqarishga o'tishning asosiy omillari va shartlari. Korporatsiyalarda "Sifat tugaraklari" ishchi guruxini tashkil etish.

6-mavzu. KORXONANING MEHNAT RESURSLARI

Sanoat taraqqiyotining muammolari umumiy majmuda uni xodimlar bilan ta'minlash masalasi, ularning manbalari, tayyorlash va kayta tayyorlash shakllarini xamda ulardan okilona foydalanish masalalarini aniqlash alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonasi (fir-ma)larini kadrlar (xodimlar) bilan ta'minlash va ulardan okilona foydalanish

aloxida axamiyat kasb etadi.

7-mavzu. KORXONANING AXBOROT RESURSLARI

Axborot - axborot xizmati tizimlarida fan-texnika faoliyati va turli sohalarda kadrlar tayyorlashni shakllantiruvchi mahsulotlar yig'indisidir, ya'ni axborot zahiralarni ishlab chiqarish va iste'mol etish faqat jamiyatning intellektual hayoti bilan cheklanadi.

8-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari

Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiyot fanlari nazariyasida va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi turli xil qarashlar mavjud. Ayrim iktisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaligi bilan bog'lasalar, ayrimlari tovar qiymati — tovar ishlab chikaruvchilarning tovaridagavdalangan va undagi jonli va moddiylashgan mexnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa, tovarning qiymatini ushbu tovarga bo'lgan talab va taklif, ya'ni tovarning iste'molchiga beradigan nafi belgilaydi, deb ta'kidlaydi.

9-mavzu. Korxonada mahsulotlariga narxning shakllanishi

Narx bozor kategoriyasi bo'lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jixatdan asoslangan narx va narxlash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Narx siyosati davlat iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining muhim ajralmas qismidir. Shu sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda, mehnatkashlarning tashabbusi va omilkorligini rivojlantirishda narx belgilash siyosati alohida o'rin egallaydi. Narxni ho'jalik mexanizmi va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashning ustuni deyish mumkin. Jamoaning va ayrim xodimning daromadlari, ular iqtisodiy manfaatlari narxning, ya'ni narxning to'g'ri belgilanishiga bog'liq.

10-mavzu. Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining daromadi talab va taklif asosida o'rnatilgan narxga bog'liqdir. Shu bilan birga bozor mukammal raqobatlashgan va manopol raqobatlashgan holatda faoliyat ko'rsatadi. Manopol raqobatlashgan holat yirik bozorlarda kam uchraydi. Mukammal raqobatlashgan bozorda korxonalar erkin faoliyat ko'rsatib, narxga ta'sir ko'rsata olmaydi.

11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyati

Investitsiyalar — iqtisodiyot va korxonalar miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishidir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste'mol bozorini ta'minlashda alohida e'tiborga ega.

12-mavzu. Korxonaning innovatsion faoliyati

Innovatsiya — iqtisodiyotga mablag' solish jarayoni. Yangilikni joriy etish: birinchidan, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar bo'lsa; ikkinchidan esa, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari bo'lgan yangi texnika va texnologiya.

Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo'nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlar maydonga kelishi innovatsiyaning muhim omillari hisoblanadi.

13-mavzu. Korxonada faoliyatini boshqarish asoslari

Korxonada yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subekt bo'lib, mulkdan foydalanish asosida u mehnat jamoasi tomonidan mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi, ishlar bajaradi va xizmat ko'rsatadi.

14-mavzu. Korxonada qudratini boshqarish.

Korxonada qudratini boshqarish texnologiyasining bosqichlari. Korxonada qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishini, uning bozordagi ulushini baxolash. Korxonada qudratini raqobatbardoshligini baxolash.

15-mavzu. Sanoatning maqsadli yo'nalishlari

Sanoat — moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu. Korxonalarining tashkiliy huquqiy asoslari
- 2-mavzu. Sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish
- 3-mavzu. Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoni
- 4-mavzu. Korxonaning asosiy fondlari ishlab chiqarish quvvatlari
- 5-mavzu. Korxonaning aylamma mablag'lari
- 6-mavzu. Korxonaning mehnat resurslari
- 7-mavzu. Korxonaning axborot resurslari
- 8-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari
- 9-mavzu. Korxonada mahsulotlariga narxning shakllanishi
- 10-mavzu. Korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari
- 11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyati
- 12-mavzu. Korxonaning innovatsion faoliyati
- 13-mavzu. Korxonada faoliyatini boshqarish asoslari
- 14-mavzu. Korxonada qudratini boshqarish.
- 15-mavzu. Sanoatning maqsadli yo'nalishlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi

<p>maqsadga muvofiq.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Korxonalarining tashkiliy huquqiy asoslari 2. Sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish 3. Ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoni 4. Korxonaning asosiy fondlari ishlab chiqarish quvvatlari 5. Korxonaning aylanma mablag'lari 6. Korxonaning mehnat resurslari 7. Korxonaning axborot resurslari 8. Ishlab chiqarish xarajatlari 9. Korxonaning mahsulotlariga narxning shakllanishi 10. Korxonaning faoliyatining moliyaviy natijalari 11. Korxonaning investitsion faoliyati 12. Korxonaning innovatsion faoliyati 13. Korxonaning faoliyatini boshqarish asoslari 14. Korxonaning qudratini boshqarish. 15. Sanoatning maqsadli yo'nalishlari <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>3</p> <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - menejmentning nazariy asoslari, menejmentning rivojlanish tarixi va zamonaviy konsepsiyalari, menejmentning fan sifatida shakllanish shart-sharoitlari, menejmentning ilmiy maktablari, ishga doir etika va etiket xaqida haqida tasavvurgacha ega bo'lishi; (bilim) - boshqaruv mehnatining ta'rifi, xususiyatlari va turlarini, boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etishni, rahbar o'zini-o'zi boshqarishini, menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni, mehnat jamoalarida xodimlarni boshqarishni, jamoa tushunchasi, turlari, shakllanish bosqichlarini, tashkilotlar rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalarini bilish va ulardan foydalanish bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)
---	---

<p>- boshqaruv usullaridan foydalanish, menejment texnologiyasini tashkil etish, boshqaruv jarayoni va vazifalarini belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, muvofiqlashtirish, boshqaruvda axborotlar va kommunikatsiyalardan foydalanish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish, korxonaning salohiyatini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</p>	<p>4</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.
<p>5</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.</p>	<p>6</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. N.Q. Yo'ldoshev, J.X. Rashidov. Menejmentning tadqiqot usullari. Darslik. - T.: «Innovatsion rivojlansh nashriyot- matbaa uyi», 2021. 152 bet 2. Ricky W. Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2015 3. Richard L. Daft. Management. Ninth edition. 2010. y. 4. Мескон М.Х. и др. Основы менеджмента. 3- е издание: Пер. с англ. - М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2008. 5. Endryu Kren. Biznes etikasi. Dirk Matten; Sara Glozer; Laura Spence. 11.07.2019 <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maykl Smit. (Integrity Book) Етакчилик . 25/06/2019йил.